



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevralda qabul qilingan “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi O‘RQ-901-sonli Qonuni
2. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2010.
3. Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Очилова Г.О., Мусаханова Г.М. Педагогика психология. Ўқув қўлланма – Т.: ТДИУ, 2010 - 393 б.
4. Махсудова М.А.Мулоқот психологияси // ўқув қўлланма. — Т.: “Турон - Иқбол”, 2006. 119 б.
5. Djumanov S., Galimov A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHI FAOLIYATINI SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNING O‘RNI //Scientific journals" D-PRESS SERVICES". – 2026. – T. 4. – №. 8. – C. 125-130.

PEDAGOGIK JARAYONDA AFFILIATSIYA MOTIVINI SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI O‘RNI

Rashidova Gulnoza G‘ulomovna

O‘zMU Jizzax filiali, Psixologiya kafedrası dotsenti

Zokirova Sevinch Sherali qizi

O‘zMU Jizzax filiali, Psixologiyasi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik jarayonda affiliatsiya motivini shakllantirishda kommunikativ qobiliyatlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinib, samarali muloqot, empatiya va interfaol munosabatlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik jarayon, affiliatsiya motivi, kommunikativ qobiliyat, pedagogik muloqot, empatiya, interfaol munosabat, pedagogik mahorat.

Ma’lumki, ilmiy tadqiqot jarayoni va uning yechimlarini izlash natijalari jamiyat taraqqiyoti rivojining asosini tashkil etadi, ya’ni ular orqali taraqqiyot sur’ati tezlashadi. Bunday taraqqiyot sur’atini esa umummilliy tadqiqotlar yordamida ta’minlash mumkin bo‘ladi va ular xususiy ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumilmiy tadqiqotlar inson aqliy faoliyatining ma’lum maqsadga yo’naltirilgan ijodiy harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi aloqadorlik hamda taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Bunday izlanishlarning asosiy maqsadi yangi bilimlarni egallash, mavjud jarayonlarni takomillashtirish hamda ular asosida yangi metodologiya, texnologiya va innovatsion yondashuvlarni yaratishdan iboratdir. Bugungi globalashuv sharoitida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi zamonaviy tendensiyalar demokratik jamiyat va fuqarolik institutlari rivoji talablariga mos ravishda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish, ularda muloqot madaniyati, empatiya, notiqlik mahorati hamda affiliatsiya motivini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Chunki pedagogik jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan

o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan samimiy va maqsadga muvofiq munosabat o'rnatishiga bog'liqdir.

Muloqotning muvaffaqiyati shaxsning fazilatlariga bevosita bog'liq. Masalan, o'qituvchining xushmuomalalilik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlash va vizdonlilik kabi fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa, talabalar bilan samarali pedagogik muloqot amalga oshiriladi. Samimiylik - muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning kaliti bo'lib, voqea-hodisalarni oqilona baholash va turli ta'sirlarga berilmaslikni ta'minlaydi [2].

Shu sababli pedagogik faoliyatning mazmuni ko'p jihatdan o'qituvchining atrofdagilarga, o'ziga va hayotga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, pedagogik jarayonda affiliatsiya motivining shakllanishi o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samimiy kommunikativ aloqalarning qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyatda kommunikativ munosabatlar insonlar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi va namoyon bo'ladi. O'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ularning qalbiga yo'l topa olishi, ularda o'ziga nisbatan ishonch va moyillik uyg'ota bilishi affiliatsiya motivining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki affiliatsiya motivi shaxsning boshqalar bilan yaqin bo'lishga, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. Pedagogik jarayonda esa aynan mana shu ehtiyoj ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada pedagogik jarayonda affiliatsiya motivini shakllantirishda kommunikativ qobiliyatlarning o'rni va ahamiyatini yoritish asosiy maqsad qilib olindi. Pedagogik faoliyatda ta'lim oluvchilarni muloqotga jalb etish, ular bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq aloqalarni tashkil etish, samimiy va interfaol munosabatlarni shakllantirish har bir o'qituvchidan yuqori kommunikativ ko'nikma va malakalarni talab qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, ta'lim oluvchilarni tushunish, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olish, fikrini boshqalarga aniq yetkaza olish kabi psixologik bilimlarga ega bo'lishi zarurdir.

Pedagogik faoliyatdagi eng muhim sifatlardan biri — bu o'z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyatidir[1]. Mazkur qobiliyat o'qituvchiga turli pedagogik vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish, muloqotni vaziyat talabidan kelib chiqib tashkil etish, suhbatdoshning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish va natijada ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradi. Bu esa pedagogik jarayonda affiliatsiya motivining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki samimiy va ishonchli muloqot mavjud bo'lgan muhitda ta'lim oluvchilarda o'qituvchiga nisbatan yaqinlik hissi shakllanadi.

Har bir ta'lim oluvchi individual shaxs bo'lishiga qaramay, ularning psixologik xususiyatlarida umumiylik mavjud bo'lib, ushbu umumiylik ma'lum qonuniyatlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi kommunikativ munosabatlarni tashkil etishda nafaqat o'z tajribasiga, balki ta'lim oluvchilarning psixologik ehtiyojlariga ham tayanishi lozim. Aks holda, muloqot jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi va affiliativ munosabatlarning susayishi mumkin.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida talabalarning shakllangan shaxsiy fazilatlari muhim o'rin tutadi. Xususan, xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, vijdonlilik, samimiylik kabi sifatlar kommunikativ jarayonning samaradorligini oshiradi. Chunki affiliatsiya motivining rivojlanishi ham aynan samimiy munosabatlarga asoslanadi[4]. Shu bois hozirgi davr o'qituvchidan yuqori kasbiy tayyorgarlik bilan birga rivojlangan kommunikativ kompetentlikni, pedagogik mahoratni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ham talab etmoqda.

Kommunikativ qobiliyat — bu o'qituvchining ta'lim oluvchilar, ularning otionalari, hamkasblari va ta'lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarga kirisha olish mahoratidir. Zamonaviy o'qituvchi pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar bilan faol va samarali muloqot olib borish san'atiga ega bo'lishi lozim. Chunki kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi affiliatsiya motivining shakllanishi va mustahkamlanishining asosiy shartlaridan biridir.

Tadqiqot natijalari talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishini ko'rsatdi:

- o'qituvchining o'ziga xos kommunikativ uslubga ega bo'lishi;
- o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning uzluksiz pedagogik jarayon sifatida shakllanishi;
- axborot hajmining ortib borishi natijasida kommunikativ munosabat shakllarini takomillashtirish zarurati;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablarning o'zgarishi;
- ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning dunyoqarashidagi tafovutlarning ortib borishi;
- pedagogik jarayonda kommunikativ metodlarni yangilash ehtiyoji;
- maktab va oila hamkorligining affiliativ munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati.

Demak, zamonaviy pedagogda pedagogik mahorat bilan bir qatorda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish nihoyatda muhimdir. Chunki aynan kommunikativ qobiliyat pedagogik jarayonda affiliatsiya motivining shakllanishiga, ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va ijtimoiy faolligining ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Очилова Г.О., Мусаханова Г.М. Педагогика психология. Ўқув қўлланма – Т-: ТДИУ, 2010 - 393 б.
2. Махсудова М.А.Мулоқот психологияси // ўқув қўлланма. — Т.: “Турон - Иқбол”, 2006. 119 б.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Т.: О'qituvchi, 2010.
4. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность, т.1. – СПб.: «Питер», 2003. -С. 347-370;
5. Buunk B. Affiliation and helping interactions within organizations: a critical analysis of the role social support with regard to occupation stress. // InStroebe W., Hewstone M. European Review of Social Psychology. – Chichester: John Wiley, 1990, 1. P. 293-322.